

7-SINF TARBIYA. ChSB - 1. DEMO Variant

Sana: _____ **Sinf** _____

O'quvchining F.I.SH. _____

1. Vatanga muhabbat tuyg'usi bilan salohiyat uyg'un bo'lganida yuksak natijalar beradi. Nuqtalar o'niga mos javobni qo'ying (B – 2 ball)

- A) Agrar B) Intellektual C) Oilaparvarlik D) Iqtisodiy

2. Kishini biror ishni qilishga undaydigan va harakatga keltiradigan tushuncha nima deb ataladi? (B – 2 ball)

- A) Kibr B) Qunt C) G'urur D) Motivatsiya

3. “O'zga yurtda gado bo'lguncha-o'z yurtida cho'pon bo'l”. Ushbu maqol insonlarda qanday tuyg'uni shakllantiradi? (B– 2 ball)

- A) Vatanga muhabbat B) O'zga yurtlarga sayohat
C) Itoatkor bo'lish D) Tartibli va ilmi bo'lish

4. Insonning biror ishni astoydil berilib, sabr-toqat bilan bajarishi nimadan darak beradi? (B-2 ball)

- A) Qunt, itoatkorlik, hafsala
B) Bilimidan
C) Vaqti ko'pligidan
D) Kibrdan

5. Barcha biror ishni bajarish imkonsiz deb turganida bir qat'iyatli inson, «Bo'lishi mumkin!» deydi-da, o'sha ishni uddalaydi. Bu harakat natijasi nimaga olib borishini aniqlang. (Q-2,8 ball)

- A) Kibrga B) Mansab pillapoyasiga
C) Muvaffaqiyatga D) Boylikka

6. Quyidagi vaziyatlardan insonlardagi eng yaxshi fazilatlar namoyon bo'lganlarini toping. (Q-2,8 ball)

- 1) Asror har doim insonlarga tabassum bilan qaraydi
2) Laziz yangi olgan telefonini maqtayapti
3) Tarbiya fani ustozimiz juda shirinso'z
4) Onam har doim xushmuomala bo'lish kerakligini aytadi
5) Tanaffus paytida qizlar g'iybat qilishdi
A) 1, 3, 4 B) 1, 2, 5 C) 2, 3, 4 D) 2, 4, 5

7. Quyidagilar vaziyatlardan axloq qoidalari namoyon bo'lganlarini ajrating. (Q-2,8 ball)

- 1) Azamat har doim o'ziga ravo ko'rgan narsalarni boshqalarga ham ravo ko'radi;
2) Mubina xolis odamlarni tinglashni yoqtiradi;

- 3) Ba'zi odamlar g'azablanganda ko'proq gapiradi;
- 4) Ayrim insonlar o'z hayotingizni doim boshqalarniki bilan solishtiradi;
- 5) Qo'pol odam xatti-harakatlari boshqalarga qanday ta'sir qilishi haqida o'ylamaydi.

A) 1, 5 B) 2, 4 C) 2, 3 D) 1, 2

8. Quyidagi qaysi vaziyatlarda insonlarning eng oliy maqsadlari ifodalangan? (Q-2,8 ball)

- 1) Azizbek har doim o'zida ilm olish va daraxt ekish fazilatini shakllantirishga harakat qiladi
 - 2) Mubina oilasi va boshqalarga yaxshilik qilishni juda yaxshi ko'radi
 - 3) Umida ezgulik ulashish shiori ostida yashashga intiladi
 - 4) Ayrim insonlarda besabrlik, zug'um o'tkazish xislatlari bor
- A) 1, 3, 4 B) 1, 2, 3 C) 2, 3, 4 D) 1, 2, 4

9. Surayyo opaning xatti- harakatlarini baholang.(Q-2,8 ball)

Surayyo opaning yon qo'shnisi necha yildirki yolg'iz yashaydi va kasal bo'lib yotib qolgan. Har kuni Surayyo opa kelini pishirgan bir kosa ovqatni olib chiqib qo'shnisidan xabar oladi.	a) qo'shnilariga yaxshilik qilishni maqsad qilgan; b) o'zini ko'z-ko'z qilishni yaxshi ko'rar ekan; c) qo'shnining haqi degan naqlga amal qilar ekan; d) sadaqa berishni yaxshi ko'rar ekan.
--	---

A) a, b B) a, c C) c, d D) b, d

10. Kecha bobom 80 yoshni qarshiladi. Hamma qarindoshlar yig'ilib nishonladik. Onam bilan ammalarim oshxonada somsa, turli pishiriqlar bilan ovora bo'lishsa, erkaklar hovlining bir chetiga qo'ra qurib, kabob pishirish bilan band bo'ldilar. Buvim tezda pishirilgan taomlardan yon qo'shnilariga ham chiqarib yuborishni aytdi. Ushbu vaziyatda qanday qadriyatlar namoyon bo'lmoqda? (Q-2,8 ball)

- A) mehr-oqibat, hurmat
- B) o'zini ko'z-ko'z qilish
- C) qo'shnilariga maqtanish
- D) salbiy qadriyatlar

11. Umida bilan Said a bir birlaridan arazlashib qoldi. Ularni ko'rgan Nilufar yarashtirib qo'yishga ahd qildi va buni uddaladi. Nilufar qanday ishni amalga oshirgan? (Q-2,8 ball)

- A) savob ish qilgan
- B) maqtanadigan ish qilgan
- C) befoyda ish qilgan
- D) samarasiz ish qilgan

12. Maktab yaqinida joylashgan kichkina do‘koncha bolalar bilan doim gavjum bo‘ladi. Buni bilgan sotuvchi ularga tamaki sotishni o‘ylab qoldi. Ushbu vaziyatda sotuvchining harakatlari to‘g‘rimi? (Q-2,8 ball)

- A) Ha to‘g‘ri, sababi u foyda qilishi kerak
- B) Yo‘q noto‘g‘ri, sababi bolalarni yomon illatlarga boshlamoqchi
- C) Savdo qilish maqsadida tamaki mahsulotlarini sotishga ruxsat berilgan
- D) maktab yaqinida tamaki sotish taqiqlangan, shuning uchun maktabdan sal chetroqda sotishi kerak

13. Mashg‘ul bo‘lib qolishdan avval qadriga yetishi kerak. Nuqtalar o‘rniga to‘g‘ri javobni qo‘ying. (Q-2,8 ball)

- A) xotirjamlikni; B) boylikni
- C) vaqtni D) sog‘liqni

14. Quyidagi vaziyatlardan mobil telefonlarning salbiy ta‘sirini kamaytirishga qaratilgan harakatlarni aniqlang. (Q-2,8 ball)

- 1) Umida telefonda muloqot qilayotganida imkon qadar ochiq havoda bo‘lishga harakat qiladi;
- 2) Azizbek har doim telefonini yostiq tagiga qo‘yib uxlaydi;
- 3) Saida ko‘pincha o‘zidan kuchsiz nurlanish tarqatadigan telefonlardan foydalanishga harakat qiladi;
- 4) Yomg‘ir yog‘ayotganda telefonda gaplashish insonga xotirjamlik beradi.

A)1, 2 B)2, 3 C) 1, 3 D)3, 4

15. Inson hayotidagi muvaffaqiyat kaliti nima bo‘lishi mumkin? (M - 4 ball)

- A) harakat B) armon C) hasad D) g‘azab